



SOCIAL DETERMINANTS OF PRINCIPLES OF UPBRINGING AND STABILITY IN THE FAMILY

Jamshidbek Rasulov

Independent researcher at Andijan State Pedagogical Institute
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Child upbringing, upbringing in the family, socio-philosophical phenomenon, parents, morality, spirituality, values, morality, spirituality, philosophical content, pedagogical approaches, self-improvement, school of life, spiritual purity, educational continuity, wisdom, social identity, spiritual identity, social role of family, principles of upbringing, honesty, respect, love, responsibility, social stability, cultural values, social determinants, family stability, philosophical analysis.

Abstract: This article provides a philosophical analysis of the process of upbringing within the family and the social determinants of stability principles. In addition, key factors that ensure family stability—such as socio-economic resilience, cultural values, and systemic integrity in the upbringing process—are examined as distinct social determinants.

Received: 12.09.25

Accepted: 13.09.25

Published: 14.09.25

OILADA TARBIYA VA BARQARORLIK TAMOYILLARINING IJTIMOY DETERMINANTLARI

Jamshidbek Rasulov

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Bola tarbiyasi, oilada tarbiya, ijtimoiy-falsafiy hodisa, ota-ona, axloq, ruhiyat, ma'naviyat, falsafiy mazmun, pedagogik yondashuvlar, takomillik, hayot maktabi, ma'naviy poklik, tarbiyaviy bardavomlik, donishmandlik, ijtimoiy o'zlik, ma'naviy o'zlik, oilaning ijtimoiy roli, tarbiya tamoyillari, halollik, hurmat, sevgi, mas'uliyat, ijtimoiy barqarorlik, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy determinantlar, oilaviy barqarorlik, falsafiy tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada tarbiya jarayoni va barqarorlik tamoyillarining ijtimoiy determinantlari falsafiy tahlil qilinadi. Shuningdek, oila barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar – ijtimoiy-iqtisodiy mustahkamlik, madaniy qadriyatlar va tarbiya tizimidagi uzviylik alohida ijtimoiy determinantlar sifatida tahlil qilinadi.

СОЦИАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПРИНЦИПОВ ВОСПИТАНИЯ И СТАБИЛЬНОСТИ В СЕМЬЕ

Джамшидбек Расулов

Независимый исследователь

Андийского государственного педагогического института

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Воспитание детей, воспитание в семье, социально-философское явление, родители, мораль, духовность, ценности мораль духовность, философское содержание, педагогические подходы, самосовершенствование, школа жизни, духовная чистота, педагогическая преемственность, мудрость, социальная идентичность, духовная идентичность, социальная роль семьи, принципы воспитания, честность, уважение, любовь, ответственность, социальная стабильность, культурные ценности, социальные детерминанты, семейная стабильность, философский анализ.

Аннотация: В данной статье философски анализируются процессы воспитания в семье и социальные детерминанты принципов стабильности. Кроме того, такие ключевые факторы обеспечения устойчивости семьи, как социально-экономическая стабильность, культурные ценности и системная целостность воспитания, рассматриваются как отдельные социальные детерминанты.

Oila jamiyatdagi eng kichik yacheyka hamda asosiy ijtimoiy institutlardan biridir. Unda insonlarning ilk tarbiyasi va ma'naviy barqarorlik mezonlari shakllanadi. Oila insonlarni faqatgina shaxsiy fazilatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham ulkan xissa qo'shadi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'birui bilan aytganda "Oilaning muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi".

O'zbekning har bir oilasi doimo ma'rifatga intilgan hamda tarbiyani hayotning asosiy mezoni deb hisoblagan. Shu bois, bu muqaddas oila dargohida kamol topayotgan farzandlar ham bilimli, zamonaviy fikrlovchi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishga qodir bo'lgan, jismonan hamda ma'nan yetuk inson sifatida kamol topmoqdalar. Bu holatlar birinchi navbatda, oilaning ichki sog'lom ijtimoiy muhitiga, ma'naviy boyligiga, ta'limga bo'lgan hurmatiga borib taqaladi.

Bola tarbiyasi – bu bir tomonlama yondashiladigan jarayon emas. Bu o'zaro ta'sirlar va progressiv rivojlanishga asoslangan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Ota-onalar farzandlariga axloq, ruhiyat va ma'naviyat saboqlarini berish bilangina cheklanib qolmasdan,

o'zlari ham tarbiyaning falsafiy mazmuni, uning ijtimoiy, ruhiy va axloqiy ildizlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan doimiy ravishda tanishib borishlari lozim. Chunki tarbiya – bu nafaqat o'rgatish, balki o'zini takomillikka yo'naltirish, har bir avlod uchun hayot maktabidan birga o'tish demakdir.

O'z farzandini donolik bilan tarbiyalagan ota-ona – kelajagiga nur yo'l solgan bo'ladi. Bunday ota-onalar hayotda rohat-farog'atni, ruhiy qoniqish va baxtni his etadilar. Ular farzandlaridan insoniylik, mehr-oqibat, saxovat va yuksak axloqiy fazilatlarni ko'radilar. Bunday ruhiy holat inson qalbini jarohatlardan, g'am-alamlardan asraydi. Ma'naviy poklik va tarbiyaviy bardavomlik ota-ona hayotining asosiy yutug'idir.

O'zbek xalqining donishmandligi, hayotiy falsafasi shu birgina maqolda mujassam: “Toy ulg'aysa, ot tinadi” Bu hikmatli ibora zamirida shunday chuqur ma'no yotadiki – farzand voyaga yetib, oqil va komil bo'lsa, ota-ona hayoti yengillashadi, tinchlik va huzur topadi. Demak, farzand – bu nafaqat zurriyot, balki ota-onaning ertangi kunidagi suyanadigan tog'i, ma'naviy tayanchi va hayotiy davomchisidir.

Falsafiy qaraganda, oila – bu insonda ijtimoiy hamda ma'naviy o'zligini shakllantiruvchi birinchi makondir. Muqaddas manba Avestoda ham oila va undagi tarbiya masalasiga alohida to'htalib “Yaxshi farzand tug'ib, uni pok yurak bilan tarbiyalagan kishi yerda eng buyuk ish qilgan bo'lur” deb keltiriladi. Aristotel ta'limotlarida oila inson tarbiyasini va uning tabiatini ajralmas qismi sifatida uqtiriladi, chunki u har zamonda jamiyatni ma'nan sog'lom tarzda harakatga keltiruvchi asosiy bo'g'indir. Oilada berilgan tarbiya tamoyillari nafaqat shaxsiy axloqni rivojlantiradi, balki umumijtimoiy adolat va barqarorlikka zamin hozirlaydi. Shu sababli, oilada tarbiya jarayonida halollik, hurmat, sevgi va mas'uliyat kabi tamoyillar har doim ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

Har bir jamiyat o'ziga xos madaniyat va an'analarga ega bo'ladi. Mazkur omillar oiladagi tarbiya jarayonida shakllanadigan axloqiy kodeks va qadriyatlarni belgilaydi. Masalan, yakdil jamiyatlarda oiladagi hurmat va bir-biriga ko'mak tamoyillari ustunlik qilsa, individualizmga asoslangan jamiyatlarda shaxsiy erkinlik va mustaqillik qadriyatlari ko'proq ta'kidlanadi.

O'z o'mida iqtisodiy barqarorlik ham oiladagi tarbiya jarayoniga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Tadqiqotlardan ma'lumki, iqtisodiy muammolari mavjud oilalarda stress va havotir oshadi, bu esa izchil tarbiyaga va uning barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan, iqtisodiy farovonlik ijtimoiy barqarorlikning asosiy determinantlaridan biridir.

Oilada ota-onaning ta'lim darajasi tarbiyaviy konsepsiyalarning ahamiyatini belgilaydi. Zamonaviy falsafiy yondashuvlariga asosan, yuqori bilimga ega ota-onalar o'z farzandlariga

ko'proq ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani berishga intiladi. Bu esa oila farovonligini va baxtli hayot kechirishini ta'minlaydi.

Oilada boshqa ijtimoiy-siyosiy institutlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, jamoat va davlat birlashmalari bilan uzviy aloqadorlikda yanada barqarorlikka erishadi. Bunda asosan mahalla, diniy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy institutlar oilaning mustahkamligini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi.

Barqarorlik nafaqat iqtisodiy xodisalar bilan emas, balki ma'naviy va axloqiy poydevorlar asosida ham qurilishi maqsadga muvofiq. Falsafiy ta'limotlardan ma'lumki, insonning axloqiy majburiyatlari unga tegishli shaxsiy erkinlik bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan olib qaraganda, "oiladagi tarbiya barqaror axloqiy majburiyatlarning hayotga nechog'lik tatbiq etilishi bilan ham bog'liqdir". Donishmand xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bejizga aytilmagan. Insonparvarlik, sahovatpeshalik, mehr-muruvvat kabi tamoyillar oilaning ijtimoiy funksiyasini to'liq bajarishiga xizmat qiladi.

Global jarayonlar, texnologiyalarning shiddatli taraqqiyoti va ijtimoiy yangilanishlar oilaning an'anaviy mavqeini hamda rolini o'zgartirmoqda. Shuningdek, oilaning barqarorligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar va yangicha metodologiyalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, zamonaviy kommunikatsiya vositalari yordamida ota-onalar va farzandlar o'rtasida samarali muloqot o'rnatish mumkin.

Oilada tarbiya va barqarorlik tamoyillarining ijtimoiy determinantlari murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Ular madaniy, iqtisodiy, ta'limiy, ijtimoiy va falsafiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Oilaning barqarorligi va tarbiyaning sifatini oshirish uchun ushbu determinantlarni hisobga olib, tizimli va integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun ijtimoiy institutlar hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Xalqimizda azaldan bola tarbiyasiga bejiz eng muhim va mas'uliyatli burch sifatida qaramagan. Bu jarayonning asosi – milliy o'ziga xos tarbiya tamoyillarida, qadimiy an'analarimizda, avlodlar donishmandligi va tajribasida mujassamdir. Ota-onalar ana shu bebaho merosni chuqur anglab, undan o'rinli va ongli ravishda foydalansalar, farzand tarbiyasida muhim yutuqlarga erishiladi.

Agar oilada ma'naviy-ruhiy xotirjamlik hukm sursa, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat va birdamlik ustuvor bo'lsa, oilaning har bir a'zosi bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatsa, bunday muhit farzand ongida ishonch, mehr va ma'naviy tayanch hissini mustahkamlaydi. Bola o'zini qadrlangan, tushunilgan va yo'l ko'rsatilgan holda his etadi.

Bu esa, o'z navbatida, nafaqat oilaning mustahkamligiga, balki jamiyatning sog'lom taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Chunki, komil inson – bu avvalo komil oilada tarbiya topgan farzanddir. Farzandlariga sog'lom tarbiya bera olgan ota-onalar, aslida, butun jamiyatning ertangi kuniga nurli yo'l solgan bo'ladilar. Tarbiya – bu faqat bugunning emas, balki kelajakning ham poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Rafiqov Quadratilla. Mening Prezidentim. T., “Akademnashr”. 2023 yil –B.64.
2. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.26.
3. Avesto. Yasht. 15:22
4. M. Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi — T. “O'qituvchi”. 2000.